

## **ISLOM BANKLARINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH**

Qobilov Islom Azizovich

Toshkent Moliya institute Magistratura va kechki ta'lim fakulteti  
Bank ishi kafedrasи Bank ishi va auditи mutahasisligi talabasi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Islom banklarini tashkil etish va rivojlantirish xususida ayrim fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so'zlar:** moliya, islom, taraqqiyot, qiymat, korporatsiya

So'nggi yillarda islomiy moliya FinTech sohalari bilan bir qatorda, shuningdek, xalqaro moliyaviy xizmatlar sanoatida eng jonli va shu bilan birga hali ko'zga yaqqol tashlanmagan tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Islomiy moliya atamasi mahsulot va xizmat turlarining keng doirasini o'z ichiga oladi. Islom moliyasi va bankining umumiy amaliyotlari islom dinining o'rnatilishi bilan birga paydo bo'ldi. Biroq, institutsional islom moliyasi XX asrdan keyin tashkil etilgan. Qardus nashrining ma'lumot berishicha, ayni paytda islom moliya sektori yiliga 15 foizdan 25 foizgacha o'sib bormoqda, islom moliya institutlari esa dunyo bo'ylab umumiy qiymati 2,7 trillion dollardan ziyod aktivlarni boshqarmoqda.

Hozirgi vaqtida Islom moliyasi eng yaxshi yo'lga qo'yilgan uchta davlat Saudiya Arabistoni, Eron, Malayziya ko'rsatkichlar ko'لامи bo'yicha global bozor hajmining 66 foiziga egalik qiladi.

O'zbekistonda «Islom bank ishi va moliyasi» tashkiloti (AlHuda) fikricha, MDH mamlakatlarida islom moliya sanoatining o'sishi boshqa davlatlarga qaraganda sekinroq, ammo bu mintaqada imkoniyatlarning ortib borayotgani tufayli jahon xalqaro bank sanoatining e'tiborini tortmoqda. MDH davlatlari hukumatlari ushbu sektorni rivojlantirish bo'yicha tashabbus ko'rsatsa, keyingi besh yil ichida islom banki ishi sezilarli darajada o'sadi. Qozog'iston, Qирг'изистон, Тоҷикистон va O'zbekiston MDHda islom banki va moliyasining bu kengayishida yetakchilik qiluvchi asosiy o'yinchilar bo'lishi mumkin, deyiladi bayonotda.

Bugungi kunda O'zbekistonda islom moliyasiga qiziqish tobora ortib bormoqda. O'zbekiston — Markaziy Osiyoning 35 million ortiq aholiga ega muhim davlati, aholisining 93 foiz qismi musulmonlardir. U nafaqat gaz, neft va boshqa tabiiy resurslarga boy, balki azaldan ham ilm va islom dinining markazlaridan biri bo'lib kelgan.

Dastlab, 2003 va 2004 yillarda O'zbekiston ITB va xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasiga (ICD) a'zoligi orqali islom moliyasini tan olish yo'lida muhim qadamlar qo'ydi. Bu institutlar va hukumat o'rtaсидаги barqaror aloqalar islomiy moliyaga ushbu bozorga kirish nuqtasini qo'lga kiritish imkonini berdi.

Islom moliyasi sohasidagi ekspert Alijon Ravshanov (O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining sobiq o‘qituvchisi) eng ko‘p beriladigan savollarga javob berdi.

Islom iqtisodiyotining mohiyati nimadan iborat? Islom iqtisodiyotining mohiyati ma’naviy mas’ul bozor iqtisodiyoti tizimini yaratishdan iborat. Uning o‘ziga xos jihatlaridan biri shaxsning va jamiyatning maishatini emas, balki haqiqiy ehtiyojlarini qondirishdir. Islom iqtisodiyoti modeli boyliklarning jamiyat ichida adolatli taqsimlanishiga alohida e’tibor qaratadi, busiz ijtimoiy barkamollik (uyg‘unlik) va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash mumkin emas, deb hisoblaydi. Islom iqtisodiyotining asosiy qadriyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Islom ma’naviy qadriyatlariga asoslangan iqtisodiy farovonlik;

Teng huquqlilik va xavf-xatarlarni taqsimlash;

Odob-axloq qoidalariga rioya qilish va diniy bag‘rikenglik.

«Islom moliyasi»chi?

Islom moliyasi tizimi — bu pul mablag‘laridan foydalanish va taqsimlash jarayonida Islom huquqi qoidalariga mos keluvchi iqtisodiy munosabatlarni o‘z ichiga oladigan Islom ekotizimining bir qismidir. Masalan, Islom dinida qarz berish yoki olish evaziga foyda ko‘rish taqiqlangan, barcha moliyaviy jarayonlar esa haqiqiy iqtisodiy faoliyatga asoslangan O‘zbekiston milliy moliya tizimida islom banklari faoliyatini yo'lga qo'yishning bir qancha afzalliklari mavjud. Masalan, islom moliya xizmatlarining kirib kelishi an'anaviy moliyalashtirish bilan raqobatni vujudga keltiradi. Bu esa har ikkala tizimning takomillashuviga xizmat qiladi. Iste'molchilarga beriladigan takliflar hajmi va sifati ortadi. O'z o'rnidagi mamlakat moliyaviy qudrati sezilarli darajada oshadi.

Islom moliyasining ijtimoiy himoya vositalari – zakot, vaqf va sadaqa mexanizmlarining joriy etilishi ulkan foyda keltirishi mumkin. Bu borada turkiyalik mutaxassis Nihat Gumushning fikricha O‘zbekiston aholisi soni va undagi musulmonlar ulushi, yalpi ichki mahsuloti va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida O‘zbekistonda bir yilda 500 million – 1,5 milliard AQSh dollari atrofida zakot yig'iladi. Ushbu mablag‘lar orqali ijtimoiy, sanitariya, ta'liddagi muammolar bartaraf etilishi mumkin. Aholining aksari musulmon bo'lganligi tufayli investitsiya fondlari ko'rsatadigan xizmatlarga bo'lgan talab har doim yuqori bo'ladi. Mablag'larni o'zlashtirish ko'rsatkichlari oshib boradi. Natijada turli sohalarga pul mablag'lari kiritiladi va tadbirkorlikning bir qancha sohalari gullab yashnaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak , vatanimizda islom banklarini tashkil etish va rivojlantirish davr talabi bo'lib, bu borada qator ishlar amalga oshirildi. Islom banklarini tashkil etish mamlakatimizning jahon miqyosidagi salohiyatini oshirish barobarida, xalqimizga bir qator yengilliklar bermoqda. Islom bankining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti uchun muhimdir.

**Foydalaniman adabiyotlar:**

- 1.Беккин Р.И. Исламские финансовые институты и инструменты в мусульманских и немусульманских странах: особенности и перспективы развития. / Автореф. дисс. докт. экон. наук., 2009. - 48 с.
- 2.Qodirova, B. "Analysis of verb terms in Uzbek and Kazakh language schools' manuals." Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems 12.6 (2020): 1125-1129.
- 3.Kadirova, Zulayxo. "INTERNATIONAL LABOR MIGRATION PORECESSES IN UZBEKISTAN." Вісник Національної академії керівних кадрів культури і мистецтв 3 (2018).
- 4.Kadyrova, B. "The Concept of Historical Consciousness and its Interaction with Social Intelligence." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 8: 189-194.
- 5.Турғуновна, Қодирова Бузулайхо, and Айнур Мархабаевна Бекжанова. "Бадий асарлар воситасида бошланғич синф үқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." Образование 8.9 (2022): 10.
- 6.Turgunovna, Kodirova Buzuloikho. "Gaming technologies to improve the efficiency of the educational process." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 837-839.
- 7.Турғуновна, Қодирова Бузулайхо, and Айнур Мархабаевна Бекжанова. "Бадий асарлар воситасида бошланғич синф үқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." Образование 8.9 (2022): 10.
- 8.Кодирова, Бузулайхо Тургуновна. "ФОРМИРОВАНИЕ ВОСПРИЯТИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ." EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY. 2020.
- 9.Kadirova, B. "PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS." harmony 3: 12.
- 10.Кодирова, Бузулайхо Тургуновна. "Специфика работы над художественно-историческим произведением в начальной школе." Вопросы науки и образования 7 (19) (2018): 213-215.
- 11.Кодирова, Бузулайхо Тургуновна. "Методологические основы формирования текстовой деятельности у учащихся в процессе достижения художественного произведения." Научные исследования 6 (26) (2018): 78-80.